

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.

Abdufattoyeva Ozoda

Qo'qon universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil va ongli fikrlashga o'rgatishda innovatsion texnologiyalar, boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganish, axborot texnologiyalarning o'rni haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, innovatsion, o'quvchi.

KIRISH. O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, hozirgi pedagogikaning asosiy vazifalaridan sanaladi. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilish, o'quvchilarni mustaqil tarzda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar foydalanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Darhaqiqat, har bir malakali o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan innovatsion metodlari mavjud bo'ladi. Pedagog bu usullardan o'zining faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonida samarali va sifatli tashkil qilishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgan sinf sanaladi. Bu paytda yosh bolalarning aqliy holati mukammal rivojlanib borishiga yuqori e'tibor qaratish kerak. Sababi ular endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib kelayotgan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirish, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib berishlari lozim bo'ladi.

ASOSIY QISM Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.¹ Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlarga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarning mahorati, uning pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq qila olishi, ta'limning yangidan yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalaridan ijobiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik ta'limda yangiliklar kiritish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda².

Innovatsion texnologiya – innovatsiya inglizcha “innovate” yangilik kiritish, yangilik, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san'at, mahorat va “logos” -fan, ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish deganidir. Innovatsion

¹ T. G., afforova “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”

² O., zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom N.A. Muslimov va boshqalar.

texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik o'zgarishlar kiritishdir. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi deyilganda o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faoliyatni tashkil eta olishi, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olishi, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olishlari, ijodiy ishlay olishlari, izlanishlari, tahlil eta olishlari, o'zlari xulosa chiqara olishlari, o'zlari guruhga, guruh ularga baho bera olishi, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining eng muhim asosi hisoblanadi.³

Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchi shaxsida o'ziga xos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ilm mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson qilib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari o'qitishning takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarni "Qochib ketgan sonlar" metodi, "Teskari sanoq", "Keyingi sonni top", "Yaqin va uzoq", "Ovalni top", "Shaklni top", "Postlar qo'yish", "Harakatlarni o'zgartirish", "Swot" tahlili metodi, "FSMU" kabi metodlardan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.⁴

"Qochib ketgan sonlar" metodi. Tarqatma materiallar o'quvchilarga taqdim etiladi. Doska katagida tushurib qoldirilgan sonlarni o'quvchilardagi tarqatma materiallar bilan to'ldirib chiqiladi (1 dan 20gacha qo'yadi). Maqsadi: O'quvchilar sonlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun foydalaniladi. Vazifasi: Sonlarni ketma -ketligini bilish darajasini oshirish.

³ J. Yo'ldoshov, S. Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent -2004.

⁴ O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.

“Teskari sanoq” metodi. O’quvchilarni doira shaklida o’tkaziladi, navbati bilan sonlarni teskari sanashni boshlanadi. Maqsadi: O’quvchilarni sanoqdagi bilimlarni yanada mustahkamlash. Vazifasi: O’quvchilarni sanoqni bilish darajasini oshirish.

“Keyingi sonni top” metodi. O’qituvchi bir deb koptokni o’quvchilar biriga otadi, o’quvchilardan biri ikki deb ushlab oladi va o’qituvchiga qaytarib otadi, so’ng o’yin shu tariqa sonlar ketma-ketligida davom etadi. Maqsadi: O’quvchilarning tezkorligi va diqqatni jamlashga undaydi. Vazifa: O’quvchilarni topqirligini oshirish va fikrlash doirasini kengaytiradi.

“SWOT” tahlil metodi: S-kuchli tomonni, W-kuchsiz tomonni, O-imkoniyat, T-to’siqlar.

“FSMU” metodi: F-fikringizni bayon eting, S-sabab keltiring, M-misol ayting, U-umumlashtiring. Bu metodlardan foydalanish darsni yanada qiziqarli va o’quvchilarni bilimini teranlashtirish uchun muhim vazifa sifatida qaraladi. Har bir o’qituvchi o’z metodlaridan har qanday vaziyatda o’quvchilar bilan ishlay olishlari kerak.⁵

XULOSA Xulosa qilib aytamizki, yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan barkamol, sog’lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya-texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang’ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifani o’taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o’rgatish muhim ahamiyatga ega. Dars mobaynida o’quvchilarning ta’lim faoliyati innovatsion metodlar orqali amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi samarali, oson kechadi va ta’lim samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. Buning uchun birinchi navbatda, o’quvchini o’qish, bilim olishga ishtiyoqini o’stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo’lgan farzandlarimizni munosib tarbiyalagan bo’lamiz.

⁵ Azizxo’jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"
"Tafakkur nashriyoti" -2011
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom N.A. Muslimov va boshqalar.
3. J. Yo'ldoshov, S. Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent 2004.
4. O'.Q. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.:
Fan, 2006.
5. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.